

(yoki erkin) yodid bo'lsa, 7500 mkg miqdordagi yodid organik modda bilan birikkan holda uchraydi.

Tiryoglobulin tarkibida tiroksinning sintezlanishi uch bosqichdan iborat bo'lgan biokimyoviy reaksiyalar orqali amalga oshadi.

Tiryoglobulinni gidrolizlaganda boshqa aminokislotalar bilan birgalikda uch xil aminokislotalar: L-gistidin, L-tirozin va L-tironinlarning yodlangan hosilalari hosil bo'ladi. Tiryoglobulinni tarkibidagi tirozin qoldiqlarini yodlanishi yodod peroksidi ( $H_2O_2$ ) ishtirokida tiryodid-peroksidaza fermenti tomonidan katalizlanadi. Tiryoglobulin gormonal faollikka ega bo'lmay, uning proteolizi tufayli ajralib chiqadigan yodtironinlarga bunday faollikka ega bo'ladi. Proteolizni epitelial hujayralarning proteinazalari amalga oshiradi, bu hujayralar asosida kapellyarlar qalin tutam hosil qiladi, shu tutamga gormonlar kirib keladi. Sog'lom odamda bir kunda 70 mkg tiroksin va 25 mkg atrofida triyoditironin sekretlanadi.

Tiryodid gormonlarning asosiy biologik ahamiyati genlarni ekspressiyasiga ta'sir etishidir. Gormonni qonga in'eksiya qilinsa, u tezda hujayraga o'tib boradi (masalan. jigar yoki mushak hujayralariga) va jadal ravishda yadro ichkarisidagi oqsillar bilan birikib transkripsiya jarayonini stimullaydi. Darhaqiqat eksperimental hayvonlar qoniga tiroksin kiritilganda oqsil sintezini boshqaruvchi ferment tizimi faollashib ketadi. Tiryodid gormonlar organizmning hamma organ va to'qimalaridagi hujayraviy reaksiyalarni tezlashtiradi. Bu narsa asosiy modda almashinuvining kuchayishi, o'sishning tezlashuvi va  $O_2$  ning sarflanishini kuchaytishida o'z aksini topadi. Hayvonlar qoniga tiroksinni in'eksiya qilish ko'pdan-ko'p ferment tizimlarini faollashtiradi. Masalan, glyukozaning oksidlanishi kuchayadi, u xususan jigarda glyukozo-3-fosfataza va glyukozo-6-fosfat-degidrogenazalarining faollashuvida namoyon bo'ladi. Organizmga tiroksin kiritilganda 100 dan ziyod ferment tizimlarini faolligi oshib ketadi. Tiroksin va triyoditironin metabolitik jarayonlar tufayli dezaminlanish diyodlanish va kon'yugatsiyalanishga duch keladi. Diyodlanish ko'pincha daslabgi riyaksiya bo'lib asosan jigardan tashqarida yuz beradi. Qolgan ikki xil riyaksiya jigarda faol amalgam oshadi, lekin organ bilan cheklanmagan.

Jigarda metabolitik o'zgarishlarga duch kelganligi hamda ularning jigar ichi bo'ylab tashilishi sababli bu organ tiroksin va tironinning qondagi miqdorini boshqaruvchi organ sifatidagi funksiyasini bajaradi. Qonga in'eksiya qilingan tiroksinning 40/1% daqiqadan keyin jigarga yetib keladi. Gormonning o'zgarishiga duch kelmagan kam miqdordagi ulishi yodid bilan birgalikda o't va siydikda paydo bo'ladi. Jigarda tiroksin vatiryodtironinning aminoguruhlarini aminotransferaza tasirida ajraladi, hosil bo'lgan ketohosilalar va gormonlarning kam miqdordagi ulishi jigarda diyodizasiyaga duch keladi, bunda tiroksinning triyoditironing aylanishi yuz beradi.

## ГУШТНИНГ ЯНГИЛИГИНИ АНИҚЛАШДА ОРГАНОЛЕПТИК ВА ЛАБОРАТОРИЯ УСУЛЛАРИ

**А.Умаров, Д.Насимова – магистратура талабаси**

**Аннотация.** Дехқон бозорига олиб келинган гўшти органолептик, кимёвий ва бактериологик кўрсаткичларининг натижаси эътиборга олинган ҳолда озиқ-овқат сифатида сотишга рухсат бериш мумкин, фақатгина санитария жихатидан яхшилаб тозалангандан кейин. Ветсанэкспертиза лаборатория текширишдан утказилмаган гўшт хар-хил касалликнинг тарқалишига олиб келади. Аҳолининг соғлом турмуш тарзини ривожлантиришда, сотиш учун олиб келинган гўшт албатта санитария кўригидан утказилиши шарт.

**Калит сўзлар:** гўшт экстракти, паранитрофенол, метил кўки.

Қишлоқ хўжалик ҳайвонлари ва паррандаларнинг турли касалликларида, улардан олинадиган гўшт ва гўшт маҳсулотларида хар хилдаги микроорганизмларнинг булишлиги эҳтимолдан ҳоли эмас. Шунинг учун ҳам бундай маҳсулотлар одамлар томонидан истеъмол қилинганда, юқумли ёки захарланиш касаллигини чақириш мумкин.

Бактериологик текшириш ўтказилишининг асосий ҳал қилувчи мақсадларидан авваламбор қўйилган диагнознинг ҳақиқий эканлигини исботлаш ҳамда гўштда қайси турдаги микроб борлигини аниқлаш ва токсикоинфекция токсикоз касалликларини олдини олишдир.

**Тадқиқот услуби ва объекти.** Мавзу бўйича бажариладиган ишларни амалга ошириш учун Самарқанд қишлоқ хўжалиги институти, ветеринария факультетидаги Ҳайвонлар касалликлари ва паразитология кафедраси лабораториясида амалга оширилди.

Гўштни янгилигини аниқлашда 200 гр гўшт бўлаги олиб келинди ва уни РН аниқланади. Гўшtdан 25 гр намуна олиниб уни 40-45 бўлакчаларга бўлдик ва 200 млли идишга солиб уни устига дистилланган сув қўшиб яхшилаб чайқатилади ва 15-20 дақиқа тиндирилади. Сўнгра 6 та пробирка олиниб қўйидагича тақсимланади

1-пробиркага 2 мл гўшт экстракти 5 мл дистилланган сув солинади.

2-пробиркага 2 мл гўшт экстракти 1 мл параниртрофенол, 4 мл дистилланган сув қўшилади.

3-пробиркага 2 мл гўшт экстракти 5 мл дистилланган сув қўшилади.

5-пробиркага 7 мл дистилланган сув солиниб, 4 ва 6- пробиркаларга аниқ РН стандартдан олинади.

Қолган гўшт холодилкинда  $+4^{\circ}$  С да 5 кун сақланди ва гўшtdан 25 гр олиниб, қайтадан худди шу тарзда РН аниқланди.

Гўшtnинг қолган қисми яна холодилникка  $+4^{\circ}$  С қўйилди.

10 кун ўтгандан сўнг гўшtnинг РН қайта текширилади.

Уларнинг таҳлили қўйидагича этироф этилди.

Намуналар	Гўшtnинг микдори	Ҳиди	Ранги	Шилим-шиқлиги	РН курсаткичи
1-намуна янги олиб келинган гўшт	25 гр	Ўзига хос	Оч қизил	йуқ	5.8
2-намуна 5-кун ўтгандан кейинги гўшт	25 гр	Ўзгарган	Оч қизил	бор	6.0
3-намуна 10-кун ўтгандан кейинги гўшт	25 гр	Ёқимсиз хидли	Оч қизил	бор	6.4

Гўшtnи текшириш натижасида шу нарса маълум бўлдики гўшт эскирган сари унинг РН кўрсаткичи ўзгара борди. 3-рақамдаги намунамиздан кўриниб турибдики гўшtnи органолептик текширганда уни ҳиди, шилимшиқлик даражаси ортиб РН кўрсаткичи ҳам ўзгариб уни истеъмолга яроқсиз эканлиги аниқланди.

**Хулоса.** Бозор ва савдо дўконларига сотиш учун олиб келинаётган гўшт албатта ветсанэкспертиза лабораториясидан ўтказилиши шарт. Ветсанэкспертиза лабораториясидан ўтказилмаган гўшт аҳолини зарарланишига, хар-ҳил касалликларни тарқалишига олиб келади. Шу боисдан олиб келинган гўшtnи органолептик, лаборатория ва бактериологик текширишлардан ўтказиш бизнинг вазифамиздир.

## **МАҲСУЛДОР СИГИРЛАРГА МИКРОЭЛЕМЕНТЛИ – ВИТАМИНЛИ ҚЎШИМЧАЛАРНИ ҚЎЛЛАШ САМАРАДОРЛИГИ**

**Б.Турсуналиев – магистратура талабаси, С.Б.Эшбуриев – тадқиқотчи,  
Қ.Н.Норбоев – илмий раҳбар, профессор**

**Аннотация.** Ушбу мақолада микроэлементли-витаминли аралашмаларни соғин сигирлар рационига 2 ой давомида қўшиб беришнинг клиник ва гематологик кўрсаткичлар ҳамда маҳсулдорлигига таъсирини ўрганиш натижалари баён этилган.